

7

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI



KAMER XONANDALIK

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: *200 000 - San’at va gumanitar fanlar*

Ta’lim sohasi: *210 000 - San’at*

Ta’lim yo‘nalishi: *60211400 - Vokal san’ati: akademik xonandalik*

TOSHKENT – 2025

Fan/modul kodi KMX1606	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 3-8	ECTS-Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 1	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Kamer xonandalik	90	90	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda san’at sohasida faoliyat olib boradigan ansambllarda xonandalik bo‘yicha mutaxassislik profiliga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga badiiy jamoalarida ijodiy faoliyat olib borish, madaniyat va san’at ta’lim muassasalarida malakali xonandalarni tarbiyalashga o‘rgatishdan iborat. «Kamer xonandaligi mahorati» fani bo‘yicha o‘qitish jarayonini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> -kamer repertuarni ijro etish uchun ijrochilik mahoratini o‘zlashtirish; -asarlarni uslubi, nozik tomonlari, psixologik ifodalanishini tushunib, shaklini sezib ijro etish ko‘nikmalarini shakllantirish; - xonanda talabalarining kamer-vokal adabiyoti materiallari asosida ijrochilik mahoratlarini rivojlantirish, romans-qo‘shiqchilik adabiyoti bilan tanishish, badiiy didni tarbiyalash va ijro etilayotgan asarlarning uslubini tushuna bilish. <p>II. Asosiy qism (Yakka mashg‘ulotlar)</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>Kirish</p> <p style="text-align: center;">1-Modul. Fanning zaruriy mazmuni va komponentlari</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Kontsert-kamer ariyalari</p> <p>Yakkanavoz kantata. Vokal balladasi. XX-XXI kompozitorlarining romans va qo‘shiqlari. XX-XXI asr jahon kompozitorlarining vokal turkumlari. O‘zbekiston kompozitorlarining kamer-vokal asarlari va turkumlari. O‘quv yillari bo‘yicha ko‘zlangan repertuar tuzilishi namunasi: Yakka (amaliy) mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.</p> <p>Ushbu fan bo‘yicha o‘rganilgan bilimlar yakka (amaliy) mashg‘ulotlarda amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlab boriladi. Xususan, har bir mavzu yuzasidan cholg‘uni chalib ko‘rish, kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta’sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetitsiyalar), ijro talqinlari orqali</p>			

sinab ko'rish yaxshi natija beradi.

2-mavzu - XVII-XVIII asr kompozitorlarining ariyalari

XVII-XVIII asr kompozitorlari ariyalarini tahlili va ijrosi. Talabada shu davr musiqaning talablarini, o'ziga hosligini aniqlash, o'rganish kerak.

Bunda quyidagilar o'rganiladi: har bitta notani ustida ishlash, til va so'zlarni to'g'ri o'zlashtirish va gapirishni va nechta bo'limlarga qanday tezliklarda ijro etilishi talaba oldiga quyish.

3-mavzu. G'arb va rus kompozitorlarini romans va qo'shiqlari

G'arb va rus kompozitorlarining romans va qo'shiqlarini o'rganib, ijro qilishda ularga hoslikni ifoda qila olish kerak. O'quv jarayoni davomida talabaga quyidagi savollar berilishi mumkin:

1. Qaysi kompozitor qaysi yillarda ijod qilgan?
2. Qaysi shoirlar asarlariga murojat qilgan?
3. Qanday musiqa asboblari jo'r bo'lgan?
4. Qaysi ovozlari uchun yozilgan?

Chet el kompozitorlarining asarlarini o'rganish jarayonida alohidagi e'tiborni to'g'ri talaffuzga qaratish kerak, chunki har bir tilning - italyan, nemis, frantsuz yoki rus tillarining o'ziga hos talaffuz qoidalari mavjud va ularga rioya qilish zarur.

4-mavzu. O'zbek kompozitorlari romans va qo'shiqlari

O'zbek kompozitorlari romans va qo'shiqlarini tahlil qilishda asosan kompozitorlarni ijodiy tarixini o'rganib qiziqishi kerak. Talabaga dastur tanlash va imkonini hisobga olgan holda tanlash kerak. Bu yerda hamma asarlar qatori o'zbek asarlarini tinglaydi.

Bu yerda hamma asarlar qatori O'zbekiston kompozitorlari romans va qo'shiqlarini tinglaydi va o'rganadi. C.Yudakov, M. Ashrafiy, R. Abdullayev, N. Norxo'jayev, X. Rahimov, A. Mansurov va boshqa O'zbekiston kompozitorlari ijodlaridan dastur tuzish mumkin.

5-mavzu. Vokal turkumlari

Bu vokal-kamer janri eng murakkab yo'nalish hisoblanadi. Odatda turkum bir shoir ijodidan she'lar asosida yaratiladi. Unga 3 tadan 25 tagacha romans yoki qo'shiqlar kiradi. Ularning ijrosida bir g'oyani boshidan oxirigacha olib borish kerak. Har bir davrning vokal turkumlari o'ziga hosligi bilan ajralib turadi. Vokal turkumini turli kompozitorlar ijodida ko'rish mumkin, shu jumladan L. Betxoven, F. Shubert, R. Shuman, P. Chaykovskiy, N. Rimskiy-Korsakov, S. Raxmaninov, A. Mansurov, R. Abdullaev, N. Norxo'jaev va boshqalar. Odatda yakuniy nazorat tinglashda vokal

turkumining 3tadan 5tagacha romans ijro etiladi.

6-mavzu. Badiiy ijrochilikni rivojlantirish.

Badiiy ijrochilikni rivojlantirishda asosan har talabaga individual yondoshuv bo'lishi lozim. Har bitta asar ijrosi davrida o'qituvchi ma'lum notalarni tegishli shtrixda ijro etish lozimligi bo'yicha vazifa qo'yadi va talaba shunga amal qilishini talab qiladi.

7-mavzu. Sahnada ijro etish

Sahna ijrosida ijro qilinayotgan asarlarga qarab afisha, sahna kostyumi konsert ijro payti (vaqti) katta rol o'ynaydi. Yakka (amaliy) mashg'ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko'rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o'z ijodiy (yoki ijro) yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvi namunalarini turli uslublarda yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o'rganish vazifalari ham qo'yiladi.

III. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Ushbu fan bo'yicha ma'lum bir mavzularni o'tib bo'lingandan so'ng, oliy ta'lim muassasasining xususiyatlaridan kelib chiqib amaliy mashg'ulotlari olib borilishi nazarda tutiladi. Bu–nazariy o'rganilgan bilimlarni, amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi.

Yakka mashg'ulotlari ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko'rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o'z ijodiy ijro yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Amaliy mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar turli shakllar bilan sinovlardan o'tkaziladi. Fanni kasbiy tayyorgarlik talablari darajasida o'zlashtirishga yo'naltirilgan barcha uslubiy yondoshuvlar, bilim va ko'nikmalarni mantiqan umumlashtirishga xizmat qiladi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriylardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- Kamer xonandalik ijrochiligi fanining maqsadi va vazifalari, musiqa ta'limidagi o'rni.

	<ul style="list-style-type: none"> - Ijro dasturi haqida ma'lumot berish. - Kamer xonandalik ijrochiligining o'ziga hosligi. - Mashg'ulot jarayoning asosiy bosqichlari. - Asarlar tahlili va ular ustida ishlash. - Dasturda ijro etilayotgan asarlarni badiiy obrazi, xarakterini me'yoriga yetkazish/ - Ijro etilayotgan asarlarning yozuvlarini internet orqali ko'rish.
<p>3.</p>	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar):</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kamer-xonandalik adabiyotlari; • ijro etilayotgan asarning badiiy did va uslubi haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; • turli davrdagi kamer-vokal musiqa repertuarini; • Yaqin va Uzoq chet el bastakorlarining romans va qo'shiqlarini; • O'zbekiston bastakorlarining kamer-vokal asarlarini; • jahon xalq ijodiyotidan xalq qo'shiqlarini bilishi va ulardan <i>foydalana olishi</i>; • ijrochilik mahoratini tarbiyalash; • XVII-XVIII asr qadimgi ariyalarni o'rganish; • oratoriya va messalardan parchalarni o'rganish; • repertuarni tanlash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.
<p>4.</p>	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • yakka mashg'ulotlar; • interfaol aqliy hujum; • interfaol keys-stadilar; • texnik mashqlar ustida ishlash; • solishtirma tahlilga oid texnologiyalar; • individual loyihalar; • ijodiy dastur taqdimoti.
<p>5.</p>	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p>Oraliq va yakuniy nazorat uchun talablar .</p> <p>Talabalar bilimini nazorat qilish o'quv rejaga muvofiq belgilangan. Oraliq va Yakuniy nazorat 3,4,5,6,7,8 semestrlarda o'tkaziladi.</p> <p>3chi semestr</p>

Oraliq nazorat

1. Kichik shakldagi asar

Yakuniy nazorat

1. O'zbekiston kompozitorlarining romansi
2. Xalq qo'shig'i

4chi semestr

Oraliq nazorat

1. Qadimgi ariya

Yakuniy nazorat

1. Chet el kompozitorlari romansi
2. Xalq qo'shig'i

5chi semestr

Oraliq nazorat

1. Qadimgi ariya
2. O'zbekiston kompozitori romansi

Yakuniy nazorat

2. Qadimgi ariya
3. Chet el, O'zbekiston yoki rus kompozitorlari romansi
4. Xalq qo'shig'i

Yoki kichik shakldagi vokal turkum (3na asardan iorat) ijrosi

6chi semestr

Oraliq nazorat

1. Chet el, O'zbekiston yoki rus kompozitorlari 2ta romansi

Yakuniy nazorat

5. Chet el, O'zbekiston yoki rus kompozitorlari 2ta romansi

7chi semestr

Oraliq nazorat

6. Qadimgi ariya
7. Xalq qo'shig'i

Yakuniy nazorat

	<p>Vokal turkum (3ta asardan iborat) ijrosi yoki:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qadimgi ariya 2. Chet el, O‘zbekiston yoki rus kompozitorlari 1ta romansi 3. Xalq qo‘shig‘i <p>8chi semestr Oraliq nazorat</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Chet el, O‘zbekiston yoki rus kompozitorlari 2ta romansi <p>Yakuniy nazorat</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qadimgi ariya 2. Chet el, O‘zbekiston yoki rus kompozitorlari 1ta romansi
<p>6.</p>	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tsoy S., Muxamedova G. Konsertniye vokalniye janri 17-20 vekov. T., 2014. 2. Razzoqova M. Akademik xonandalik asoslariga kirish. T., 2014. 3. Saidmuxamedova L. Kamernoe peniye. Kamerniy vokalniy tsikl v Uzbekistane. T., 2023 4. S. Tsoy. Rabota nad vokalnim tsiklom v klasse klasse konsertno –kamernogo peniya T., 1997. <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017.-488 b. 2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, Demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatasining qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017.-32 b. 3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini takomilash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016- yil 7-dekabr. T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017.-32 b. 4. Mirzoeva M. Analiz ispolnyaemix proizvedeniy / V sb. “Voprosi vokalnoy pedagogiki”, vip. 2. M., 1964. 5. Miller R. The Structure of singing. System and art vokal texhnique. USA, 2016. 6. Rizayeva M. N. Stanovlyeniye molodogo pevtsa. Yosh xonandaning kamoloti. T., 2003.

	<p>7. Tsoy S. Akademik xonandalik. Qo'rqmas Muxiddinov repertuaridan. T., 2007.</p> <p>8. Repertuarnaya vokalnaya entsiklopediya: romansi i pesni. T.2. Agin M. S., Cheboksari, 2014.</p> <p>9. Ridigyer P. V. Konsertno-kamernoye peniye. Minsk: Belorusskaya gosudarstvennaya akademiya muziki, 2022.</p> <p>Soy S. A. Rabota nad vokalnim tsiklom v klasse konsertno –kamernogo peniya T., 1997-2016.</p> <p>10. Soy S. Frantsuzkaya vokalnaya lirika XX veka v klasse konsertno –kamernogo peniya T., 1997.</p> <p>11. Ludko M.G. Starinnaya muzika v klasse kamernogo peniya. Spb.: PLANETA MUZIKI, 2020.</p> <p>12. Vakkai N. Prakticheskiy metod italyanskogo kamernogo peniya (printsipi postanovki golosa). Spb.: PLANETA MUZIKI, 2023.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://notes.tarakanov.net/ 2. https://ale07.ru/music/notes/song/chorus/chorus_notes.htm 3. http://www.classic-online.ru 4. http://www.operascores.ucoz.com 5. http://www.vnotke.com 6. http://www.imslp.org 7. http://www.classic-music.ru 8. http://www.krugosvet.ru 9. http://www.mus-info.ru 10. http://www.wikipedia.org
7.	<p>Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «29» 08 dagi 1 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: Muxamedova G.I. – O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrasida professori</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Razzoqova M.Q.- O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrasida professori Radjabov A.A - O'zbekiston xalq artisti, O'zDK "Akademik xonandalik va opera</p>

	tayyorlovi" kafedrası professori
--	----------------------------------